ZO‘RAVON EKSTREMIZM VA RADIKALIZMNI OLDINI OLISH VA UNGA QARSHI KURASHISH BO‘YICHA ILG‘OR AMALIYOTLAR: O‘ZBEKISTON VA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARI



"MULOQOT" NTT

WWW.MULOQOT-NGO.UZ

2022 YIL| MAXSUS SON

TAHLILIY NASHR

Mazkur tahliliy nashr “Muloqot” jamoat birlashmasi ekspertlari tomonidan tayorlandi

ZO’RAVON EKSTREMIZM VA RADIKALIZMNI OLDINI OLISH VA UNGA QARSHI KURASHISH CHORALARI: NAZARIYA VA AMALIYOT

Ma’lumki, bugungi kunda zo‘ravon ekstremizm va radikalizmning oldini olish, unga qarshi kurashish nafaqat alohida davlatlarning, balki jahon hamjamiyatining eng asosiy va dolzarb vazifalaridan biriga aylangan, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Hozirgi kunda dunyo hamjamiyati murakkab bosqichdan o‘tmoqda. Eski dunyo tartibotining buzilishi va yangisining vujudga kelishi nihoyatda keskin holatda kechmoqda. Bir qutbli dunyo tartibotidan ko‘r qutbli dunyo tartibotiga o‘tish davri kechirilmoqda.

Bu davr, dunyoning bir nechta nuqtalarida urush va keskin ziddiyatlar bilan belgilanib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining muhim maqsadlaridan biri dunyoning rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan munosib o‘rinni egallashdir. Mamlakatimiz tomonidan turli iqtisodiy va siyosiy sohalarda erishilgan yutuqlar davlat rahbari va hukumat tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosatining yaqqol misolidir. O‘zbekiston tinchliksevarlik siyosatini olib borib, harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok yetmasligini va har qanday xalqaro harbiy bloklarga qo‘shilmasligini e’lon qilgan.






Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, bugun Islom dinining xalqaro hayotdagi va jahon zamonaviy siyosatidagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Agar tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, musulmon jamoalarining transformatsiyasi XIX-asrning oxiridan boshlab urbanizatsiya jarayoni, ommaviy ta‘limni joriy etish, davlatlararo va shaxslararo aloqalarni jadallashishi va kengayishi, jamiyat institutlarining va ommaviy siyosiy mobilizatsiyaning yangi turlari, iqtisodiyotni tubdan qayta tashkil etish va zamonaviylikning boshqa muammolari mustamlakachilik bilan bir vaqtda an‘anaviy musulmon jamiyatlarini shakllantirishga o‘z ta‘sirini ko‘rsata boshladi. Aksar musulmon davlatlarining iqtisodiy jihatdan orqada ekanligi sabablari va bu kechikishdan qutulish usullarini topish ustida qo‘rquv va xavotirda izlanishlar olib borildi. Islom dunyosining muammolarini anglash va ularga yechim topish nuqtai nazaridan intelektual maydonda shartli ravishda to‘rt xil bo‘linishlar yuzaga keldi:

1. Dunyoviylar. Bu turdagi musulmonlar hamma narsada G‘arbga taqlid qilish kerak deb hisoblaydigan aholi qismi. Ular modernizatsiyani vesternizatsiya deb tushunishadi. XX-asrning boshida va o‘rtalarida elita o‘rtasida juda ta‘sirli bo‘lgan bu mafkura (Turkiyada Otaturk, Eronda Rezo Raxlaviy, Yaqin Sharqdagi Baas rejimlari va boshqalar) biroz o‘z jozibasini yo‘qotgan bo‘lsada, ammo hozir ham muhim va ta‘sirli mafkuraviy yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

2. Diniy modernistlar. Modernizatsiyani musulmon jamiyatining an‘anasi, uning noyob ijtimoiy xotirasi, madaniy merosi, diniy e‘tiqodlari bilan bog‘liq bo‘lishi kerak va vaqt talablariga muvofiq holda ushbu meros, an‘analar va e‘tiqodlar, Islomning asosiy qoidalariga ziyon yetkizmaydigan tarzda, tanqidiy ko‘rib chiqilishi kerak deb hisoblashadi.

3. An‘analar tarafdorlari / konservatorlar. Ular din sohasida hech qanday tanqidiy fikrga o‘rin yo‘q, chunki Islomdagi diniy va huquqiy maktablarning asoschilari tomonidan hamma narsa ko‘zda tutilgan deb hisoblaydilar. Modernizatsiya texnologik yoki iqtisodiy o‘zgarish tushunchalari orqali “tor“ ma‘noda tushuniladi.

4. Fundamentalistlar / radikallar. Ular uchun zamonaviylik tushunchasi G‘arb ustuvorligining bir shakli va musulmon dunyosining barcha muammolarini hal qilishning yagona yo‘li “toza” Islomga qaytish, deb ishonadigan “Al-Qoida”, ISHID, “O‘zbekiston Islomiy Harakati” kabi marginal guruhlardir.

Shu o‘rinda, ekstremizm tushunchasi haqida to‘htalib o‘tish maqsadga muvofiq. Ekstremizm tushunchasi (lot. “o‘ta” degan mazmunda) - jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy harakterdagi muammolarni hal etishda o‘ta keskin chora-tadbirlar, fikr va qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyotdir. Ekstremizm mazmuni va yo‘nalishiga ko‘ra diniy yoki dunyoviy bo‘lishi mumkin.

Ekstremizm tushunchasi yana boshqa bir negative talqindagi “Fundamentalizm” tushunchasi bilan ko‘p holatlarda adashtiriladi. Fundamentalizm - muayyan dinning vujudga kelishdagi ilk davriga qaytish va shu yo‘l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari suradi.

G‘arbda “fundamental” yoki “integrik” harakatlar deb nom olgan butun musulmon olami va undan tashqari hududlarda vujudga kelgan harakatlar keskin faollashdi. Bunga, musulmon davlatlaridagi, hozirgi paytlarda Livandagi Hizbulloh tashkiloti, Jazoirdagi “Islom qutqaruv fronti”, Misrdagi “Al-Jamoa al-Islamiya” yorqin misol bo‘ladi. Bularni “siyosiy Islom” tipiga kiritib, ularning ishtirokchilarini odatda “islomiylar” (“Islomchilar”) deb atashadi.

1980-yillar oxiriga kelib, Islomning siyosiy tus olish radikal harakteri kuzatilmagan musulmon mamlakatlari deyarli qolmagan edi. Davlat xokimiyatini tanqid qilish bilan birga, u bilan murosaga kelishishga tayyor, hukumat tizimlarida (parlamentda, xatto boshqaruv apparatida) ishtirok yetuvchi mo‘tadil, ekstrimistikdan tortib, Islom niqobi ostida va terror usullarini qo‘llovchi turli-tuman islomiy harakatlar mavjud bo‘ldi.

Islomiy tashkilotlar qatoriga o‘zida tinch va qonuniy ishlash metodlarini qo‘llovchi, shu bilan bir qatorda zarur hollarda terrorga qo‘l uruvchi, o‘z faoliyatini maxfiy saylovchi strukturalar mavjud edi. Misol uchun, Misrdagi Al-Jamoat al-Islamiya va Al-Jihad radikal-terror guruhi Misrdagi “Birodar-musulmonlar” tashkilotida ajralib chiqqan tuzulmaviy bo‘limlar deb hisoblanardi. Shuning uchun, islomiy harakatlar osonlikcha qonuniydan noqonuniyga aylanishi, tinchdan qurolli metodlarga o‘tishi mumkin.

Bugungi kundagi Islom siyosiy harakatlarining asosiy yo‘nalishi, bu muxolifatdir. Islomiy muxolifat o‘zini “uchinchi kuch” sifatda gavdalanib, bu so‘zning asli ma’nosi, o‘zi mustaqil faollik ko‘rsatishi kerak deb tushunishadi.

O‘zlarining amaliy faoliyatlarida “islomchilar” o‘zlariga Sudandagi Al-Mahdi inqilobiy harakati, Liviyadagi Sanusiylar, Jazoirdagi Abdul Qodir, Marokashdagi Rif Islom Respublikasidan, birinchi Falastin urushida va Suvaysh kanali hududida inglizlarga qarshi urushda Birodar-musulmonlar ishtiroki va Erondagi Islom inqilobidan ruhlanish va quvvat olishadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston aholisining 94 foizidan ortig‘i Islom diniga e’tiqod qiladi. Mamlakatda 130 dan ortiq millat vakillari istiqomat qilib, 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2241 ta diniy tashkilot, shu jumladan, Imom Buxoriy xalqaro markazi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O‘zbekistondagi Islom madaniyati markazi, Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti, Mir Arab Oliy madrasasi, 9 ta o‘rta maxsus Islom bilim yurti, pravoslav va protestant seminariyalari faoliyat olib bormoqda.

O‘zbekiston azaldan turli millatga mansub, turli dinlarga e‘tiqod qiluvchi xalqlar tinch-totuv yashagan o‘lka bo‘lib kelgan. Ajdodlarimiz boshqa din vakillariga doimo hurmat bilan munosabatda bo‘lgani, Vatan taraqqiyoti yo‘lida yelkadosh bo‘lib mehnat qilgani tarixiy manbalarda ko‘p qayd etilgan.

O‘zbekistonning turli hududlarida qad ko‘targan biri-biridan go‘zal masjidlar musulmonlarimiz uchun ajoyib va betakror tuhfa bo‘ldi. Ular qatorida poytaxtdagi “Minor”, “Islom ota”, Surxondaryo “Hazrati Imom”, “Imom Buxoriy”, “Bahouddin Naqshbandiy”, “Imom Moturidiy”, “Hakim Termiziy”, “Imom Termiziy” kabi buyuk ajdodlarimizning majmualari”, Rus pravoslav cherkovi “Svyato-Uspensk” kafedral sobori, Rim-katolik cherkovi kosteli, Yevangel-lyuteranlar kirxasi va boshqa diniy obyektlar to‘liq qayta ta’mirdan chiqarilib, keng faoliyat yurita boshladi. Bugungi kunda Toshkent shahrida qurilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazi esa uni ko‘rgan har qanday odamda katta taassurot va hayrat uyg‘otadi.

Mustaqillik yillari diniy ta’lim tizimini yaratish va rivojlantirish yo‘lida tizimli ishlar amalga oshirildi. So‘nggi paytlarda diniy ta’lim sohada olib borilayotgan islohotlarning uzviy davomi sifatida so‘nggi davrda Islom dining insonparvarlik mohiyatini ochib berish, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, yosh avlodni gumanistik g‘oyalar, milliy g‘urur va iftihor ruhida tarbiyalash, O‘zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlar merosini o‘rganish, Islom ta’limotining turli yo‘nalishlarida chuqur ilmiy-tadqiqotlar o‘tkazishni tashkil etish borasida sermahsul ishlar tashkil etilmoqda. O‘zbekiston Prezidentining tashabbuslari bilan Samarqandda Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi qoshida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Termiz shahrida Imom Termiziy ilmiy-tadqiqot markazi, Buxoroda Mir Arab Oliy madrasasi, Toshkent shahrida O‘zbekistondagi Islom madaniyati markazi faoliyatini tashkil etilish yuqoridagi ezgu maqsadlarga, shuningdek, ma’naviyatimizni yanada yuksaltirish, jamiyatimizda tinchlik va osoyishtalik, ijtimoiy barqarorlik, o‘zaro ahillik va totuvlik muhitini kuzaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda konfessiyalararo muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun Din ishlari bo’yicha qo’mita huzurida Konfessiyalar ishlari jamoatchilik kengashi tashkil etilgan bo’lib, uning tarkibiga respublikadagi ko’p sonli diniy konfessiyalar etakchilari kirgan. Respublika hududida istiqomat qilayotgan va 16 xil konfessiyalarga mansub bo’lgan 130 dan ortiq millat va elatlarning mavjudligi davlat va hukumatning diniy sohaga bo’lgan e’tiborini yanada oshiradi. Mustaqil O’zbekiston Respublikasining qonunchiligi xalqaro huquq normalari shartlariga to’liq javob bera oladigan huquqiy poydevor yaratgan.

Mustaqillik yillarida 60 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi fuqarolari Saudiya Arabistoniga Haj marosimiga va 1000 dan ortiq fuqarolar xristian va yahudiylar uchun muqaddas bo'lgan Rossiya, Grestiya va Isroildagi maskanlarni ziyorat qilishga muvaffaq bo'ldilar. Davlat tomonidan ziyoratchilarga har tomonlama yordam ko'rsatilmoqda - maxsus samolyotlar ajratilmoqda, ularga tibbiy yordam ko'rsatilmoqda, xorijiy valyutani almashtirishda, hamda respublikadan chiqish va mamlakatga kirish vizalarini rasmiylashtirishda imtiyozlar berilmoqda. Respublikada Qur'oni karim, Qadimgi Ahdning 16 kitobi va Yangi Ahd to'liqligicha o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. Yuzlab masjid, cherkov va ibodatxonalar, shu jumladan, Toshkent, Samarqand va Navoiydagi pravoslav ibodatxonalari, Toshkentdagi katolik kostyoli, Samarqanddagi Arman cherkovi qurildi va ta'mirlandi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston musulmonlari idorasi, Qoraqalpog`iston musulmonlari qoziyoti, Toshkent Islom instituti, 9 madrasa va 2038 masjid faoliyat olib bormoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston qadim davrlardan turli millatga mansub, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi xalqlar tinch-totuv yashagan o'lka bo'lib kelgan. Bu ko'p asrlik tarixiy an'ana bugungi kunda ham davom etib, umumiy, tinch va osoyishta uyimizda diniy bag'rikenglik ruhi yanada mustahkamlanmoqda va rivojlanmoqda.

Albatta, bugun O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha ulkan yaratuvchan ishlar mamlakatda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikka asoslanadi. Taassufki, bugungi kunda jahonda ro'y berayotgan voqealar yovuz kuchlar va buzg'unchi mafkuralar umuminsoniy xavfsizlikka, xalqlarning erkin va tinch hayot kechirishlariga tahdid solayotganidan dalolat bermoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 15 iyun kuni bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqida ta'kidlaganlaridek: "Islom faqat nurli hayotga, ilm-ma'rifatga, yaxshilikka undaydi. Hech qachon xunrezlik, qotillik, zo'ravonlikka chaqirmaydi. Ana shu haqiqatni tan olmasdan, soxta g'oyalarga aldanib, zararli oqimlarga kirish, terrorchi bo'lish - bu O'zbekiston xalqiga mutlaqo to'g'ri kelmaydi".

Bugungi kunda din ishlari bo'yicha qo'mita davlat, jamoat va diniy tashkilotlar bilan hamkorlikda jamiyatda diniy ekstremizm g'oyalari tarqalishini oldini olishga qaratilgan ishlarni tizimli amalga oshirib kelmoqda. Ushbu ishlar OAVda chiqishlar, qo'llanma va bukletlar tayyorlab, jamoatchilikka yetkazish, aholining barcha ijtimoiy qatlamlari bilan turli formatlarda uchrashuvlar uyushtirish, diniy-ma'rifiy saytlarda aqidaparast oqimlarning axborot xurujiga qarshi munosib javob berish shakllarida amalga oshirilmoqda. Mazkur tadbirlarda diniy ulamolar faol ishtirok etmoqdalar.

Media yo‘nalishidagi yangi diniy-ma’rifiy tadbirlar qatorida O‘MI saytining “Facebook” ijtimoiy sahifasida diniy sohadagi dolzarb mavzularda mashg‘ulotlar tashkil etilganini, yirik masjidlarda juma ma’ruzalarining onlayn namoyish yo‘lga qo‘yilganini ko‘rsatishimiz mumkin.

Respublikamizning barcha hududlarida o‘sib kelayotgan avlodni ilm va hunar egallashga chorlash, ularni mutaassib g‘oyalardan himoya qilishga alohida e’tibor qaratilib, mazkur jarayonga keng jamoatchilik jalb etilmoqda.

Alohida qayd etishimiz bo‘lgan natijador ishlar sifatida so‘nggi yilda adashib yot oqimlar ta’siriga tushib qolgan fuqarolarimizni soxta g‘oyalar ta’siiriga tushib qolganliklarini tushuntirish, asoydil pushaymon bo‘lganlarga ishonch bildirib, jamiyat uchun foydali tinch hayot yo‘liga qaytarish, zarur yordam ko‘rsatish to‘g‘ri yo‘lga qaytarish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlarni qayd etishimiz lozim.

Mustaqillik ijtimoiy hayotning barcha soxalarida, jumladan, ma’naviy hayotdagi yangilanish jarayonini, tub o‘zgarishlar davrini boshlab berdi. Dinga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi: Sobiq sovet tuzumining dinga ateistik hujumkorlik siyosatiga barham berildi, vijdon erkinligi qonun orqali kafolatlandi.

Davlatning dinga munosabatidagi asosiy hususiyati - dinning siyosatga aralashmasligi. Zero, har qanday din birinchi o‘rinda ma’naviy-ahloqiy yunalishni o‘z ichiga oladi. Diniy ekstremizm va murosasizlikka qarshi mafkuraviy kurashning muhim omili sifatida yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish ekani qayd etildi hamda bag‘rikenglik madaniyatini kamol toptirish yo‘llari, imkoniyatlari va bu boradagi ustivor vazifalar yoritib berildi. Tinchliksiz taraqqiyot va demokratiya bo‘lmagani kabi, bag‘rikengliksiz tinchlik ham bo‘lmaydi.

2021 yil 1 iyul kuni «2021-2026 yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi prezident farmoni qabul qilindi. Farmon bilan «2021-2026 yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi» va «Milliy strategiyasini amalga oshirish yuzasidan «yo‘l xaritasi»ga ko‘ra, quyidagilar strategiyaning ustuvor yo‘nalish va maqsadlari etib belgilandi:

-ekstremizm va terrorizm g‘oyalari tarqalishining oldini olish maqsadida vatanparvarlik, an'anaviy qadriyatlar va bag‘rikenglik mafkurasini targ‘ib qilish;

-voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida ekstremizm va terrorizm g‘oyalari tarqalishining oldini olish;

-ayollar huquqlarini himoya qilish hamda ularning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishdagi rolini kuchaytirish;

-uzoq muddat xorijda bo‘lgan fuqarolarni ekstremizm va terrorizm g‘oyalari ta'siridan himoya qilish;

-Internet jahon axborot tarmog‘idan ekstremistik va terrorchilik maqsadlarida foydalanishga qarshi kurashish;

-fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarini ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga keng jalb qilish;

-ekstremistik va terrorchilik harakatlarini sodir etganlik hamda ularni moliyalashtirganlik uchun huquqiy ta'qib va javobgarlikka tortish choralarini takomillashtirish;

-ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

-ushbu sohadagi xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish.

Hujjatda ma'lum qilinishicha, hukumat bundan keyin ham diniy sabablarga ko‘ra buzg‘unchi mafkuralar ta'siridan jabr ko‘rgan shaxslarga har tomonlama yordam ko‘rsatishda davom etadi.

Shuningdek, hujjatda aholining huquqiy madaniyati va ma‘rifatini oshirib borish, diniy sohada diniy va dunyoviy bilimlarni egallagan, fuqarolar orasida diniy asosdagi ekstremizm mafkurasiga qarshi immunitetni shakllantira oladigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ommaviy axborot vositalarini ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish ishlariga faol jalb etish belgilangan.

Vazirlik va idoralar hamda mahalliy hokimliklar «Yo‘l xaritasi»da belgilangan tadbirlar ijrosi bo‘yicha har yarim yillik yakunida Davlat xavfsizlik xizmatiga ma'lumotlarni taqdim etishi, DXX raisi esa umumlashtirilgan ma‘lumotlar va aniq takliflarni Prezident huzuridagi Xavfsizlik kengashi apparatiga taqdim etib borishga mas‘ul qilib belgilangan. Prezident huzuridagi Xavfsizlik kengashi apparati strategiya ijrosining ahvoli to‘g‘risida har yarim yillikda O‘zbekiston prezidentiga axborot berib boradi. Ushbu Strategiyani uch bosqich - 2021-2026 yillarda amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”dagi oltinchi ustuvor yo‘nalish “Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish” deb nomlangani bejiz emas. Ayniqsa, ushbu ustuvor yo‘nalishning “Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmalarini shakllantirish” sarlavhali 82-maqsadi muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda Taraqqiyot strategiyasi doirasida, jumladan:

-ekstremizm va terrorizmni keltirib chiqaruvchi omillarning oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlarni takomillashtirish, ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaxshilash, yot g‘oyalar ta’sirining oldini olish va bunday ta’sirga tushib qolganlar bilan tizimli ishlash orqali ularning muammolarini bartaraf etish;

-aholi, ayniqsa yosh avlodda terrorizm va ekstremizm mafkurasiga qarshi qat'iy va barqaror immunitetni shakllantirish;

-ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning xalqaro-huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda xorijiy davlatlar, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini kengaytirish;

-diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, shuningdek, chet elga uzoq vaqtga ketayotgan hamda yashab kelayotgan fuqarolar bilan shug'ullanuvchi boshqa idoralarning kadrlar salohiyati va resurslarini mustahkamlash;

-xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm, terrorizm va ularni moliyalashtirishga qarshi kurash sohasida axborot hamda tajriba almashish;

-faoliyati ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga qaratilgan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda faol ishtirok etish;

-Markaziy Osiyoda BMTning Global aksilterror strategiyasini amalga oshirish bo'yicha hamkorlikdagi sa'y-harakatlarni birgalikdagi harakatlar rejasi doirasida muvofiqlashtirish;

-Markaziy Osiyoda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha birgalikdagi ishlar doirasida axborot almashinuvi va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beruvchi xalqaro tashabbuslarni amalga oshirishda O'zbekistonning rolini kengaytirish;

-dunyo hamjamiyati va mintaqaviy tashkilotlar e'tiborini Afg'onistonda tinchlik va hamjihatlikni ta'minlashga jalb qilish borasidagi tashabbuslarni jadallashtirish va ushbu mamlakatni mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga, shu jumladan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga jalb qilish kabi muhim masalalar doirasida izchil ishlar boshlab yuborilgan.

O'zbekiston BMTning Global aksilterror strategiyasini qo'llab-quvvatlagan, terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha 14 ta xalqaro konvensiya hamda protokolni ratifikatsiya qilgan. Bundan tashqari, bu borada O'zbekistonda "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida", "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida", "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunlar hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

2021 yil 16 dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasida "Terrorizm va inson huquqlari" nomli 76/169-sonli rezolyusiya qabul qilindi. Rezolyusiyada terrorizm hamda terrorizm uchun sharoit yaratadigan zo'ravonlik ekstremizmining barcha xurujlari, usul va amaliyotlari, qaysi shakl va ko'rinishda yuz berishi, qaerda va kim tomonidan sodir etilishi,

qanday motivatsiya yo moliyaviy, moddiy yoki siyosiy qo‘llab-quvvatlash negizida sodir etilishidan qat’i nazar, xalqaro huquqqa mutlaqo mos kelmaydigan xatti-harakat sifatida so‘zsiz qoralanishi ta’kidlangan.

BMT Bosh Assambleyasining Rezolyusiyasida, shuningdek, terrorizm hamda terrorizm uchun sharoit yaratadigan zo‘ravonlik ekstremizmi inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishga g‘ov bo‘lishiga e’tibor qaratilgan. Bu salbiy omillar tufayli esa, bir tomondan, insonning siyosiy, shaxsiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini amalga oshirish yo‘lida to‘siqlar yuzaga kelsa, ikkinchi tomondan, davlatlarning hududiy yaxlitligi va xavfsizligi, hukumatlarning barqarorligi, huquq va demokratiyaning ustuvorligi, yanada tashvishlanarlisi, dunyoda farovon jamiyatlar, xalqaro tinchlik hamda xavfsizlikning mavjudligi ulkan tahdid ostida qoladi.

Ma’lumki, BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 47-sessiyasi doirasida 2021 yil 5 iyul kuni “Suriya va Iroqdan olib kelingan ayollar va bolalarning reabilitatsiyasi hamda reintegratsiyasi” mavzuida tashkil etilgan onlayn-tadbirda O‘zbekiston vakillari ishtirok etdi. Mazkur seminarda Suriyaning shimoli-sharqiy qismida joylashgan “Al-Hol” va “Roj” lagerlarida qariyb 70 ming inson - 57 davlat fuqarolari hisoblanuvchi asosan ayollar va bolalar og‘ir ahvolda saqlanayotgani tashvish bilan qayd etildi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, O‘zbekiston 2019 yildan buyon Suriya, Iroq va Afg‘onistondagi ayollar va bolalarni qaytarish bo‘yicha beshta «Mehr» operatsiyasini o‘tkazdi. Mojaroli hududlardan mamlakatga jami 531 nafar kishi olib kelindi.

Jahon hamjamiyati O‘zbekistonning o‘z fuqarolarini mojaro zonalaridan, shu jumladan Iroq va Suriyadan vataniga qaytarish va reintegratsiyasi bo‘yicha harakatlarini olqishladi. Bunday sa’y-harakatlarda O‘zbekiston kabi faollik ko‘rsatgan mamlakatlar kam ekani e’tirof etildi.

Xalqaro ekspertlarning fikricha, bu sa’y-harakatlar bolalarni jabrlanuvchilar sifatida tan olishga hamda bolalar va ayollar uchun gender masalalari inobatga olingan hamjamiyatlar darajasidagi reintegratsiya dasturlari yordamida ularning shaxsiy manfaatlarini himoya qilish zarurligiga asoslangani bilan nihoyatda ahamiyatlidir.

Vataniga qaytib kelgan bolalar, ayollar va oilalarning jamiyatga qaytadan integratsiyalashuvi, bir tomondan, ularning ijtimoiy jihatdan yakkalanib qolishiga barham bersa, ikkinchi tomondan, jamiyatda kambag‘allikni kamaytirish orqali tinchlik va barqarorlikni mustahkamlaydi.

BMT Maxsus ma’ruzachisi Fionnuala Ni Aolayn terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashdagi O‘zbekistonning yangi yondashuvlarni alohida qayd etdi. Binobarin, O‘zbekiston xalqaro maydonda terrorizmga qarshi kurashda faol ishtirok etmoqda. Xalqaro aksilterror koalitsiyalar faoliyatini izchil qo‘llab-quvvatlamoqda. Xususan, mamlakatimiz BMT Aksilterror qo‘mitasi va MDH Aksilterror markazi faoliyatida qatnashib keladi.

ZO‘RAVON EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISH BO‘YICHA XALQARO TAJRIBA

So‘nggi yillarda terrorizmga qarshi kurash xalqaro munosabatlarning eng muhim masalalaridan biri sifatida gavdalanmoqda. Bu holat Afg‘oniston, Suriya, Iroq va Pokistonda davom etayotgan mojarolar bilan qisman bog‘liq bo‘lib, o‘z navbatida davlatlar tomonidan terrorizmga qarshi kurash borasida harbiy yoki “qattiq” yondoshuvlarni javob sifatida qo‘llanilishiga olib keladi. Ayrin hollarda, zo‘ravon ekstremizmga javoban davlatlar va fuqarolik jamiyati tomonidan profilaktik yoki yumshoqroq chora-tadbirlar tadbiq etilishi ham uchrab turadi, aksariyat vaziyatlarda bunday yondoshuv harbiy choralardan ko‘ra ko‘proq samara berishi e‘tirof etilgan. Biroq, shunday bo‘lishiga qaramay, bu borada jiddiy muammolar saqlanib qolmoqda.

Shaxslar va guruhlarni osoyishtalik bilan zo‘ravon ekstremizmdan xalos qilishga qaratilgan “Radikalsizlantirish” (Deradicalization) dasturlari so‘nggi yillarda katta shuhrat qozonib, uning qo‘llanilish ko‘lami ham ortib bordi. Garchi bu dasturlarning mohiatlari bir biridan farq qilsada, ularni birlashtiruvchi umimiy mavzu va muammolari mavjud. Masalan, ayrim dasturlarda asosiy urg‘u terrorizm bilan ayblangan maxbuslar, jinoyatchilar va avf etilishini so’rab chiqqan ekstremistlarga qaratilsa, boshqa dasturlarda markaziy o‘rinni ekstremistik dunyoqarashdan voz kechish va jamiyatga qayta reabilitatsia qilish, ish o‘rinlari bilan ta‘minlash va kasbiy bilim olishlariga ko‘maklashish egallagan.

Ma’lumki, bugungi kunda zo‘ravon ekstremizmga qarshi kurash muammosi nafaqat O‘zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyo uchun dolzarb masalalardan biriga aylandi. Chunki, jamiyat va zamonaviy dunyo taraqqiyotini ta’minlash uchun radikalizmga, zo‘ravonlikka, ekstremizmga qarshi kurashish yo‘li bilangina erishish mumkinligini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda. Bu borada turli davlatlarning o‘ziga xos uslublari, hayotiy tajribalari mavjud bo‘lib, quyida shunday tajribalar bilan o‘rtoqlashamiz.

Radikalizmga qarshi kurashayotgan shunday davlatlardan biri - Saudiya Arabistoni. Arabiston yarim orolida joylashgan ushbu mamlakat, garchi Islom dinining markazi, jamiyatning bir muncha konservativligi bilan ajralib tursada, radikalizmga qarshi kurashish bo‘yicha juda katta tajribaga egaligi bilan ham alohida e’tiborga molik davlat hisoblanadi. Saudiya Arabistoni terrorizmga qarshi kurash borasida juda mukammal dasturlarni ishlab chiqib, butun jamiyatni qamrab oluvchi usullar bilan omma ongidan ekstremistik kayfiatni yoq qila oldi. Saudiyaning bu boradagi xatti-harakatlari ikki bosqichli bo‘lib, u rasman 2005 yildan boshlab ishga tushirildi. Avvaliga, shubhali terrorchilarni qamoqqa olish bilan boshlandi. Biroq, faqat bu harakatlar bilan chegaralanib qolinmadi. Qamoqdagi shaxslar bilan tezda muloqot o‘rnatilib, ularning radikallashuning asosiy sabablari o‘rganildi hamda ularning Islom dini bo‘yicha tushunchalari tahlil qilindi.

Ishlar asosan uch hil kesimda tashkil qilindi: diniy, ruhiy va madaniy. Dastur qatnashchilariga ijtimoiy tadbirlarda, ayniqsa oilaviy yig‘inlar va sport tadbirlarida qatnashishga ruxsat berildi. Lekin, shu bilan birga, asosiy e‘tibor ularning Islom haqidagi “to‘g‘ri tushunchalari va bilimlariga” qaratildi. Saudiya dasturining yana o‘ziga hos jixati shunda ediki, davlat tomonidan berilgan moliaviy yordam evaziga dastur qatnashchilariga oila qurish va ta‘lim olishlari rag‘batlantirildi. Afv so‘rab murojat qilgan sobiq “ekstremistlar” ish bilan ta‘minlanib, ularni jamiyatga qaytadan qo‘shish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rildi. Bundan tashqari, dastur qatnashchilari va ularning oila a‘zolariga davolanish va sog ‘liqni tiklash bo‘yicha moliaviy yordam va nafaqalar ajratildi.

Saudiya hukumati tomonidan olib borilgan bunday dasturlar ekstremistlar sonini keskin kamaytirgan bo‘lishiga qaramay, ayrim muammolar haligacha saqlanib qolmoqda. Jumladan, so‘nggi yillarda radikal kuchlar tomonidan Internet tarmog‘idan o‘z g‘oyalarini kengroq tarqatish va shu yo‘l bilan o‘z tarafdorlari sonini orttirishga bo‘lgan urinishlarining ortib borishi sharoitida Saudiya hukumatini jamiyat va undagi yoshlar qatlamining radikallashuvi oldini olish borasida profilaktik choralarni kuchaytirishga undamoqda. Saudiya rasmiylarining ma‘lumotlariga ko‘ra, 1998 yilda 15 ta ekstremistik vebsahifalar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda bir necha ming vebsahifalar ishlab turibti. Ularning aksariyati o‘z serverlarini Saudiya Arabistonidan tashqarida, jumladan AQSh, Evropa, Xitoy va Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlarida joylashtirgan.

2003-2004 yillarda Saudiya Arabistonining Din ishlari bo‘yicha vazirligi tashabbusi bilan internetdagi radikallashuvni oldini olish maqsadida “Sakina kampaniyasi” nomli loyihaga asos solindi. Arabchadan tarjima qilinganda “sakina” so‘zi “tinchlik, osoyishtalik” degan ma‘nolarni anglatadi. Garchi bu loyiha mustaqil va nodavlat tashkiloti safatida faoliyat yuritsada, uni Saudiyaning ta‘lim va ichki ishlar vazirliklari ham qo‘llab-quvvatlab keladi.

Mamlakatning Din ishlari bo‘yicha vazirligining yordami bilan Islom ulamolari, olimu-fuzalolari radikal g‘oyalar ta’siriga tushib qolganlar bilan aloqaga kirishadilar va ular bilan bahs yoki muloqotga kirishishdan oldin qamoqxonalarda radikal qarashlari uchun jazo muddatini o‘tayotganlar bilan bo‘lgan muloqot tajribalaridan foydalangan holda, sayt foydalanuvchilaridan diniy talqinlari borasidagi Qur’on talqinlarini tushuntirib berishlarini so‘raydilar. Bunday yozishmalar Internet tarmoqlariga joylashtiriladi va boshqa foydalanuvchilarni Islomning va uning g‘oyalarining zo‘ravonlikka qarshi ekanligidan xabardor qilishda foydalaniladi.

Garchi, radikallashuv jarayoniga turli yoshdagilar duch kelsalarda, odatda o‘smirlar va yoshlar qatlami o‘zligini anglashga bo‘lgan intilishlari yoki daxldorlik hissi tufayli zo‘ravon ekstremizm va terroristik radikallashuv mafkuralari uchun nozik qatlam hisoblanadi.

Bunday amaliyot joriy qilinishida ko‘plab G‘arbiy Yevropa mamlakatlari tajribalaridan ham foydalaniladi. Ular ichida - radikallashuv hodisasini o‘rganish va shu asosda, radikallashuv ehtimoli yuqori bo‘lgan yoshlar qatlamini maktabdan tashqari mashg‘ulotlarga (sport, turizm, dunyoviy fanlar, kosmonavtika va xokazo), volontyorlik sohasiga keng jalb qilish (masalan, keksalarning uylariga tashriflar, masjidlar va ijtimoiy maskanlarni tozalash, turli konkurslar tashkil qilish va o‘tkazish, mehnat va ta’lim yordamlarini ko‘rsatish, ota-onalarga yordam berish keng jalb qilish tashkil qiladi. Bunday faoliyatning katta qismi yoshlar tashkilotlari bilan ishlashga yo‘naltirilmoqda.

Shular bilan bir qatorda, Saudiya Arabistoni ichki ishlar vazirligi qoshidagi Media-maslahat qo‘mitasi maktablar va masjidlar uchun ko‘plab o‘quv materiallari va broshyuralar chop qiladi. Ushbu qo‘mitaning asosiy ishi yoshlar o‘rtasida ta’lim va targ‘ibot ishlarini kuchaytirishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. OAVlar va boshqa axborot kanallari orqali yoshlarning ekstremistik kuchlar ta’siriga tushib qolishlarining asosiy sababi sifatida Islomni to‘g‘ri va aql bilan tushunmaganligi ko‘rsatiladi.

Shuningdek, hukumat tomonidan radikallashuvga qarshi siyosiy va huquqiy choralar ham kuchaytirilgan bo‘lib, ko‘plab radikallar jinoiy javobgarlikka tortiladilar va oxir-oqibat, to‘g‘ri yo‘lni tanlamaganligi uchun o‘limga hukm qilinadi. Bu amaliyot oxirgi keskin chora sifatida qo‘llaniladi. Lekin mamlakatda radikallashuvga qarshi eng samarali kurash - bu mafkuraviy kurash ekanligi allaqachon anglab yetilgan.

Mafkuraviy ishlar qatorida, o‘z qilmishlaridan pushaymon bo‘lgan sobiq radikallar bilan bo‘lgan intervyular, Suriya va boshqa mamlakatlardagi jangarilarning jinoiy qilmishlari, alkogol va narkotik moddalar iste’moli bilan bog‘liq “jirkanch” ishlari doimiy ko‘rsatib boriladi va bu holatlar ham zo‘ravon ekstremizmga qarshi kurashishning samarali vositasi sifatida jadal olib boriladi.

Zo‘ravon ekstremizga qarshi kurash borasida katta tajribaga ega bo‘lgan, texnologik jihatdan tobora taraqqiy etib borayotgan yana bir davlat - Turkiya Respublikasi bo‘lib, mamlakatda radikal kuchlarga qarshi kurashish bilan bog‘liq juda zalvorli tarix mavjud. Bugungi Turkiya radikalizmga qarshi kurashishning yorqin misoli sifatida ham qayd etiladi. Deyarli 85 millionlik aholiga ega Turkiyada 98% kishilar Islom diniga e‘tiqod qilishadi.

Turkiyada deyarli 20 yil davomida mo‘tadil islomiy, shuningdek, asosiy mafkurasi “konservativ demokratiya” bo‘lgan Adolat va taraqqiyot partiyasi hukmronlik qilayotgan bo‘lsada, mamlakat radikallashuvga va zo‘ravonlikka samarali qarshilik ko‘rsata olmoqda. Buning asosiy sababi sifatida biz Islom va dunyoviylik o‘rtasida shakllangan muvozanatli munosabatni keltirishimiz mumkin.

Mamlakatda turli siyosiy qarashlarning mavjudligi, ham diniy va ham dunyoviylikning o‘zaro “til topishishi” bilan bog‘liq jarayonlar tarixiga deyarli 100 yil bo‘ladi. O‘z vaqtida Turkiya Respublikasining asoschisi Mustafo Kamol Otaturk ekstremistik kuchlarga qarshi olib borgan murosasiz kurashi tufayli mamlakat butunlay sekulyar jamiyatga aylantirilgan edi. Ammo, o‘tgan asrning 80-yillarida sodir bo‘lgan Islom o‘yg‘onishi bilan bog‘liq xalqaro jarayonlar Turkiyaga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Ammo, mamlakatda dunyoviylikning, ilm-fanning, modernning keng targ‘iboti tufayli, shuningdek, yoshlarda Islom yoki diniylikka qaraganda, milliylikni (buyuk Turk millati) tuyg‘usini kuchaytirishga qaratilgan asosiy e’tibor tufayli bugun mamlakat diniy estremizmga qarshi samarali kurash olib bora olish layoqatini yo‘qotmagan. Mamlakatda diniy va dunyoviy tuzum tarafdorlari o‘rtasiga qarashlarda kelishmovchilik bo‘lsada, dunyoviy hayot tarafdorlari tomonidan Turkiyaning o‘z modernizatsiya loyihalari mavjudligi, liberal hayot, demokratiya va fuqarolik institutlarining shiddati kabilar siyosiy jarayonlarning asosini tashkil qiladi.

Zo‘ravonlikning ikkinchi tomoni - bu millatlararo munosabatlarda o‘z aksini topgan bo‘lib, Turkiyada mavjud kurd millatining mustaqillikka erishish uchun jon-jahdi bilan kurashishi, millatchilik va separatizm g‘oyalariga yo‘g‘rilgan zo‘ravonlikning avj olishi bilan bog‘liq holatlar tez-tez sodir bo‘lib turadi. Bunga qarshi garchi, Turkiya aksariyat hollarda harbiy yo‘l bilan kurashsada, lekin millatlararo munosabatlarda ham muvozanatni ta’minlashga alohida mafkuraviy e’tibor qaratiladi.

Turkiyada sekulyar jamiyatning mezonlari bugungi kunda eng mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda va jamiyatning o‘zi har qanday zo‘ravonlikka qarshi kurashish borasida katta immunitetga ega. Bunday yutuqqa erishilishining asosi - bu mamlakatda ta’lim tizimining tobora zamonaviylashib borayotganligi, aholining aksariyat qismi ma’rifatliligi, Yevropa bilan integratsiya jarayonlarining parametrlari mavjudligi, mamlakatda turli millatlar va elatlarning, diniy konfessiyalarning o‘zaro yelkama-yelka hamkorligini ko‘rsatish mumkin.

Bugungi kunda, mamlakat miqiyosida “Radikalsizlantirish” dasturlari asosan ikki yo‘nalishda amalga oshirilmoqda:

Birinchidan, Turkiyaning diniy ishlar bo‘yicha “Diyonat” tashkiloti Islomning tinchlikparvarlik dini ekanligini keng targ‘ib qilmoqda. Shu maqsadda, 2015 yili “Global terror iskanjasidagi Islom” nomli ma‘ruza matni tayorlandi: Turkiyadagi 80 000 masjid va xorijdagi 2 000 masjidlarga tarqatildi.

Ikkinchidan, Turkiyaning Milliy politsiasi va tegishli xavfsizlik xizmatlari birgalikda radikalizm va ekstremizmga moyil kishilarni aniqlash va ularni bunday xarakatlardan qaytarish maqsadida muloqotga kirishib, bu borada tizimli ishlab kelmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri 2016 yil Turkiyaning janubida joylashgan Adana shahrida o‘tkazildi.

Tadbir davomida 333 ekstremistlardan 226 tasi “radikalsizlantirilib”, ular osuda xayotga qaytarildi.

Ekstremiz va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rayotgan davlatlardan yana biri sifatida Pokistonni ko‘rsatishimiz mumkin. Ushbu mamlakat aholi soni bo‘yicha juda katta musulmon mamlakatlaridan biri bo‘lib, so‘nggi vaqtlarda islomiy ekstremizmdan, radikalizmdan ko‘p jabr, zulm ko‘rayotgan mamlakat sifatida e’tirof etilmoqda. O‘tgan asrning o‘rtalarida dastlab Britaniyadan mustaqillikka erishgan, keyin esa Hindiston bilan fojiali tarzda “bo‘linish”ni boshdan kechirgan Pokiston o‘z tarixi davomida ko‘p musibatli kunlarni ko‘rganligi hech birimizga sir emas. Ammo, demokratik taraqqiyot borasida katta salohiyatga ega mamlakat bugungi kunda zo‘ravonlikka ham qarshi tura olayotgan, G‘arb davlatlari bilan samarali hamkorlik qila olayotgan, eng asosiysi zamonaviy boshqaruvni qo‘ldan boy bermayotgan mamlakat hisoblanadi.

Buning o‘ziga xos sabablari sifatida, Pokistonning Konstitutsiyasini alohida tilga olish mumkin. Islomchilarning ta’siri u darajada yuqori bo‘lmagan vaqtda ijod qilingan mazkur Konstitutsiya yozilishida Yevropada yashagan va dunyo taraqqiyotini, yutuqlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan taniqli shaxslarning roli nihoyatda yuqori bo‘lgan edi. Birgina shu omilning o‘zi mamlakatda zo‘ravonlik va ekstremizmga qarshi kurashning muhim huquqiy asosi bo‘lganligini e’tirof etgan holda, mamlakatda radikallashuvga qarshi kuchlarning, siyosatchilarning, partiyalarning, jamoat tashkilotlarining ham roli nihoyatda yuqori ekanligini tan olmoq joiz.

Bugun mamlakat islomiy radikal kuchlarga qarshi murosasiz kurash olib borayotganligi va bu borada ko‘plab davlatlar tajribalariga tayanayotganligi, millatlararo munosabatlardagi (asosan Ranjobliklar va Rushtunlar) ziddiyatlarni bartaraf etish uchun zamonaviy ta’limni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratayotganligini alohida e’tirof etmoq joiz.

Shu bilan bir qatorda, mamlakat zo‘ravonlik ta’siridagi yana bir jihat, ya’ni islomiy yo‘nalishlar bo‘lgan sunniylar va shialar o‘rtasidagi ziddiyatlardan keng jabr ko‘rayotganligini, doimiy nizolar (ko‘pincha qonli tus olayotgan, ya’ni bir-birlarining masjidlaridagi portlashlar, o‘zaro qarama-qarshiliklar, radikal chaqiriqlarga ergashayotgan yoshlarning xavfli harakatlari) mamlakatning barqarorligiga ham keng xavf solayotganligini, lekin mamlakatda tobora mustahkamlanayotgan demokratik qadriyatlar vositasida ularga qarshi samarali kurasha olayotganligini tan olish kerak.

Pokiston zo‘ravonlik va ekstremizmga qarshi murosasiz kurash yo‘lini tanlagan va bu yo‘lda ta’lim va mafkuraviy ishlarni tobora jadallashtirayotganligini, xotin-qizlarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotidagi rolini oshirish yo‘li bilan kurashayotganligini bugun butun dunyo ko‘rib, guvohi bo‘lib turibdi.

Misol uchun, Pokiston Bosh vaziri lavozimida ham o‘z vaqtida ayol kishi bo‘lganligini, bugun ham mamlakatda ko‘plab muhim lavozimlarni xotin-qizlar egallaganligi va ular vositasida jamiyatdagi radikal qarashlarga katta zarba bera olayotganligini e’tirof etmoq joiz.

Yoshlarning ko‘p qismini xorijiy mamlakatlarda, asosan taraqqiy etgan G‘arb mamlakatlarida o‘qitish, ularning o‘qishni tugatib, mamlakatga qaytib kelishi va radikalizm emas, balki ma’rifiy taraqqiyot yo‘lini tanlayotganligi, lavozimlarni egallab, dunyoviylik va texnologik taraqqiyotning muhim omil ekanligini targ‘ib qilishlari Pokistonning zo‘ravon ekstremizga qarshi kurashining muhim yo‘nalishiga aylanganligi muhim tajriba sifatida e’tirof etilmoqda.

Zo‘ravon ekstremizmdan katta jabr chekayotgan yana bir ulkan musulmon mamlakati – bu Indoneziya bo‘lib, mamlakat bugungi kunda ko‘plab radikal kuchlarning nishoniga aylanayotganligi hech birimizga sir emas. Ammo, vaziyatning murakkabligiga, 250 millionli aholining Islom diniga e’tiqod qilishi va radikallashuvni targ‘ib qiladigan ko‘plab ekstremistik kuchlarning ta’sir ko‘rsatishini qayd etmoq lozim.

Indoneziyada Islomning radikallashuviga yo‘l qo‘ymaslik uchun mamlakat hukumati, maxsus kuchlar, kuch tuzilmalari, zamonaviy musulmon ta’lim tizimi, “Muhammadiya” va “Nahdlatul ulamo” singari umummusulmon jamoat tashkilotlari yordamida samarali kurash olib boriladi. Ular tomonidan keng targ‘ibot ishlari va ularda Islomning ma’rifatparvarlik va ilmga rag‘bat xususiyatlari ommaga taqdim qilib boriladi.

Bir tomondan, mamlakat elitasi faol tarzda radikallashuvga qarshi kurash doirasida o‘z tarixiy an’analarini targ‘ib qilish yo‘li bilan samarali kurashsa, ikkinchi tomondan, bu jarayonga butun davlat apparati, harbiy kuchlar agarki, radikallashuv mamlakat va jamiyat xavfsizligiga tahdid tug‘dira olish imkoniyatiga ega deya baholansa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashadi va har qanday faoliyat qat’iy chek qo‘yilishi bilan oldi olinadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, radikallashuvga qarshi kurash jarayonlariga mamlakatning taniqli, obro‘li, nufuzli musulmon jamoat va diniy-ma’rifiy tashkilotlari ham faol jalb qilinadi. Ular tomonidan radikalizmga qarshi kurashda tizimli kurashish yo‘llari va uslublari ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy qilinadi. Bunday vazifalarga mamlakatdagi katta obro‘ga ega bo‘lgan imomlar, ulamolar ham keng jalb qilinadi va ular yordamida axborot va ilmiy faoliyat keng avj oldiriladi.

Mamlakatda radikalizmga qarshi kurashning faol ishtirokchilari sifatida Islom universitetlari va boshqa qator diniy va dunyoviy ta’lim muassasalari maydonga chiqadi. Mamlakatning madaniy va ilmiy elitasi tomonidan olib boriladigan ma’rifiy ishlar musulmon aholining birinchi galda, siyosiy madaniyatini yuksaltirishni ham targ‘ib qiladi.

Ular tomonidan G‘arb davlatlari va jamiyatlarining erishgan yutuqlari asosan ilmiy va ma’rifiy yo‘l ekanligi musulmon ummasiga doimiy tushuntirib borilishi keng yo‘lga qo‘yilgan.

Mamlakatda tarixda saboq chiqarish, milliy va dunyoviy salohiyatni rivojlantirish, jamiyatning hamjihatligini ta’minlash, radikalizmning jirkanch basharasini ochib berish, zo‘ravonlikka qarshi ma’rifiy kurashish kabi omillar bu boradagi siyosatning ijtimoiy-mafkuraviy asosini tashkil qiladi. Shuningdek, zamonaviy Indoneziya ummaning faoliyati doirasida Islomning radikallashuviga yo‘l qo‘ymaslik, radikal va ekstremistik oqimlar va an’analarning profilaktikasi borasida samarali va hayotiy mexanizm taklif qila olgan mamlakat hisoblanadi. Bu mexanizm asosan ta’lim, islomiy tarbiyaning o‘ziga xos yo‘nalishlari, ustozlarga, millat ruhiyatiga cheksiz hurmat ko‘rsatish va xokazo uslublarni qamrab olgan.

Bugungi kunda Islom olamida o‘z so‘ziga, qudratiga va o‘ziga xos taraqqiyot tendensiyasiga ega davlatlardan yana biri - Malayziyadir. Indoneziyaga qo‘shni bo‘lgan, madaniy, milliy va mintaqaviy jihatdan yaqin bo‘lgan ushbu davlat ham bugun zo‘ravon ekstremizmga, radikalizmga eng ko‘p duch kelayotgan mamlakatlardan biridir. Mamlakatda zo‘ravonlik va radikallashuvga qarshi uch umumiy dastur bo‘lib, ularning har biri zo‘ravonlikka va radikallashuvga qarshi samarali kurashni taqazo qiladi.

1. Hamma tomonni qamrab oladigan dastur: alohida olingan ekstremistlar mafkurasini vaxulq-atvorini o‘zgartirishni, terroristik guruhlar tuzilmalarini buzishni amalga oshirish (garchi bunday dasturlar murakkab, qimmat, lekin muvaffaqiyati kafolatlangan).

2. Maqsadli dasturlar: alohida insonlar bilan ishlash va ularga o‘z qarashlari va xulq-atvorini o‘zgartirish taklifini berish.

3. Rragmatik dasturlar: asosiy maqsad - terrorchi yoki radikalning xulq-atvorini o‘zgartirish (garchi murakkab bo‘lsada, ma’lum bir natijalarni qo‘lga kiritish ehtimoli yuqori).

Malayziyada ekstremistlarga ta’sir ko‘rsatishning maxsus dasturi uzoq muddatli bo‘lib, u kamida uch yilni qamrab oladi va unda kuch ishlatish, bo‘ysinmaydigan yoki qaytmaydiganlarga nisbatan qat’iy intizom bilan jazolash qo‘llaniladi. Bunday tajriba, uslub va texnologiyalarning ma’lum qismlarini Malayziya Indoneziya va Singapurdan, shuningdek, Xitoydan o‘zlashtirgan. Unda qamalgan ekstremistlarga nisbatan diniy-ma’rifiy va psixologik faoliyat amalga oshiriladi.E’tiborli jihati ekstremistning ijtimoiy atrof-muhiti bilan ham faol ishlar olib boriladi. Masalan, ekstremistlarning oilasi ta’minoti uchun davlat tomonidan moliyaviy ko‘mak ajratiladi va shu yo‘l bilan unga ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, maxbus ekstremistlarga bepul ta’lim beriladi va kasb o‘rgatiladi. Alohida ta’kidlash kerakki, o‘z ekstremistik va radikal mafkurasidan voz kechgan ba’zi sobiq maxbuslar boshqa radikallar bilan profilaktik ishlar uchun volontyor sifatida jalb qilinadi va ular uchun ma’lum bir ijtimoiy imtiyozlar ham yaratiladi.

Qamoq muddatini o‘tayotgan radikallarga qarshi kurashishning umumiy xususiyati bo‘lgan ikki darajada, ya’ni individual va jamoaviy tarzda amalga oshiriladi. Bu vazifalar uch xil tarkibiy qismdan iborat bo‘lib, ular: maxbusning qamoq muddatini o‘tab chiqqandan so‘ng jamiyatga ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish uchun diniy-ma’rifiy, psixologik va tibbiy faoliyat tarzida joriy qilinadi. Shu yo‘l bilan jamiyat uchun “Yangi odam” yaratish konsepsiyasi dunyo yuzini ko‘radi.

YAKUNIY XULOSALAR VA TAVSIYALAR

Xorijiy davlatlarning “radikalsizlantirish” dasturlarini o‘rganish va tegishli xulosalar chiqarish O‘zbekiston uchun ham foydali bo‘lishi mumkin. Haqiqatdan ham, ayrim davlatlarda “kuch ishlatmaslik” usullari orqali ko‘plab ekstremistlarni zararsizlantirish va ularni osuda xayotga qaytarishga erishildi. Qolaversa, davlatlar uchun bunday “radikalsizlantirish” dasturlari terrorizmga qarshi kurash dasturlariga nisbatan moliyaviy jihatdan ancha tejamkor variant hisoblanadi. Masalan, Saudiya Arabistoni bir yilda o‘zining “radikalsizlantirish” dasturlari uchun atiga 12 million AQSh dollari sarflaydi.

“Radikalsizlantirish” dasturlarining samaradorligi yuqori bo‘lishiga qaramay, bunday dasturlarga “har qanday muammolarni xal qiladi” deb qaralmaslik lozim. Negaki, terrorizmga qarshi kurashning “kuch-ishlatar” instrumentlari muammoni to‘liq xal qilmaganidek, “Radikalsizlantirish” dasturlarining ham o‘ziga yarasha kamchiliklari mavjud. Masalan, shart-sharoitlar turlicha bo‘lganligi sababli bir davlatda yahshi natija bergan dastur, boshqa davlatda kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Yuqorida ko‘rsatilgan mamlakatlar tajribalarini yetarlicha o‘rganish, tadqiq qilish asnosida O‘zbekistonda zo‘ravon ekstremizmga qarshi kurashish, radikallashuv darajasini pasaytirish va jamiyatda bunday salbiy unsurlar ko‘payishining oldini olish uchun kerakli tavsiyalar ishlab chiqildi va ularni quyidagicha amaliyotga joriy qilish lozim deb hisoblaymiz:

1. Ekstremistik faoliyatga olib keladigan yoki jamiyatda radikalizm uchun asos bo‘layotgan holatlarni aniqlash;

2. Yoshlarda dunyoviylik ruhiyatini mustahkamlaydigan ilmiy, ma’naviy tadqiqotlarni ko‘paytirish va ularning xulosalarini amaliyotga joriy qilish;

3. Mamlakatda obro‘ga ega bo‘lgan diniy arboblar va ulamolarni ekstremizmga va radikalizmga qarshi profilaktik jarayonlarga keng jalb qilish;

4. Yoshlarda milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini kuchaytirish orqali zo‘ravonlikka, ekstremizm va radikalizmga qarshi immunitetni mustahkamlash va kuchaytirish;

5. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda radikalizmning oqibatlari va uning sabablari to‘g‘risida qisqa lo‘nda axborotlarni tarqatishning ta’sirchan uslublarini va mexanizmlarini ishlab chiqish;

6. Radikal kayfiyati yoki ekstremistik xulq-atvori aniqlangan toifalar bilan ishlashning ma’rifiy uslublarini joriy qilish, ularni jahon adabiyotining durdona asarlarini o‘qishlari va uni anglashlari uchun shart-sharoit yaratish, zarur bo‘lsa, bunga majbur qilish;

7. Radikalizm va zo‘ravon ekstremizm aslida Islom dinini qo‘llab-quvvatlash emas, aslida jamiyat jaholatga boshlab, taraqqiyotdan ortda qoldiradigan va qoloqlikka yuz tutishiga sabab bo‘ladigan omil ekanligini ilmiy-ma’rifiy isbotlagan tadqiqot namunalarini yaratish va turli axborot vositalari orqali maqsadli auditoriyaga yetkazish;

8. Ekstremizmga qarshi kurashda xotin-qizlarning roli va imkoniyatlariga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Oila, mahalla, maktablar va shunchaki el orasida radikalizmni kamaytirishda ayollardan samarali foydalanish mumkin deb hizoblaymiz. Shu sababli, bu mavzuga bag’ishlangan ilmiy ishlar va tadqiqotlarni, shuningdek sotsiologik izlanishlarni olib borish;

9. Radikalizm va zo‘ravon ekstremizmga qarshi kurashish borasida katta yutuqlarni qo‘lga kiritgan xorijiy mamlakatlar bilan tajriba almashishni yo‘lga qo‘yish, ularning mutaxassislarini ma’lum bir maqsadli vazifalar uchun jalb qilish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Yovqochev Shuhrat , “Jahon siyosatida Islom omili”, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, Toshkent, 2016 yil.

2.Husniddinov Z. (muharrirligida) “Diniy ekstremizm ya terrorizmga qarshi kurashning ma‘naviy-ma‘rifiy asoslari”, O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi Toshkent Islom universiteti, “Toshkent Islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi”, Toshkent, 2005 yil, 162 b.

3.Ignatenko A. “Epistemologiya islamskogo radikalizma // Religiya i globalizatsiya na prostorax Yevrazii”. / Pod redaksiyey A.Malashenko i S.Filatova. - M.: Moskovskiy sentr Karnegi, 2005. - S. 176-222.

4.Maududi, S.A.A. “Politicheskaya teoriya islama. Osnovi islama” // Otechestvennie zapiski. - Moskva, 2003. - №5.;

5.Maudidi Sayyid Abul A‘la. “Political Theory of Islam”, Lahore: Islamic Publications Limited, 1976. - P.4 - 22.

6.Maududi Sayyid Abul A‘la. “Unity of the muslim world”, Lahore, 1982. - P. 19-34.

7.“Should the United States Support Islamists?” A Debate with R.M.Gerecht and D.Pipes//Program Brief. A Publication of the Nixon Center. - The Nixon Center, - Washington D.C., 2005.- October 24.-P. 1-2.

8.Esposito J.L. “Islam and Politics”. - Third edition. - N.Y.: Syracuse University Press, 1984. - P. 153.

9.Shaukat Ali. “Islam and Politics”.- Southeastern Massachussets University, USA.- Aziz Publishers, Urdu Bazaar, Lahore, 1990. - P. 2.

10.Rustow D. “A world of nations”. - Wash., Brookings Institution, 1967.-306 p.; Huntington S. Political Order in Changing Societies. - New Haven: Yale University Press, 1970. - 488 p.

11.Borisov A.V. “Arabskiy mir: proshloye i nastoyasheye”. - M.: IV RAN, 2002. - S.147.

12.Hamed El-Said, Jane Harrigan “Deradicalising Violent Extremists: Counter-Radicalisation and Deradicalisation Programmes and their Impact in Muslim Majority States”, Taylor & Francis, 2012, 278 p.

13.Hamed El-SAid. “New Approaches to Countering Terrorism”, London, Palgrave Macmillan, 2015.

14. C. Boucek, “Saudi Arabia’s ‘Soft’ Counterterrorism Strategy: Prevention, Rehabilitation, and Aftercare”, Carnegie Paper Middle East Program, Number 97, September, 2008

Internet manbalar

1. «2021-2026 yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 01.07.2021 yil № PF-6255-son, https://lex.uz/docs/-5491626

2. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”,https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144

3. Iskandar O'roqboyev, Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari, “Taraqqiyot strategiyasi” Markazi, 30 Dekabr 2021, https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston-tashqi-siyosatining-ustuvor-yonalishlari

4. Ehrenfeld R. and Lappen A.A. “The Truth about the Muslim Brotherhood” June 16, 2006. – Front Page Magazine.com.

5. Mehra T. “Foreign Terrorist Fighters: Trends, Dynamics and Policy Responses”, The International Centre for Counter-Terrorism (ICCT), p. 8, The Hague, 2016. https://icct.nl/publication/foreign-terrorist-fighters-trends-dynamics-and-policy-responses/

6. Hannah Greg; Clutterbuck Lindsay and Rubin Jennifer. “Radicalisation or Rehabilitation? Understanding the challenge of extremist and radicalized prisoners”, Rand Corporation, 2008. www.rand.org/content/dam/rand/pubs/technical_reports/2008/RAND_TR571.pdf

7. Institute for Economics and Peace. “Global Terrorism Index 2016”, National Consortium for the Study of Terrorism and Responses to Terrorism (START), University of Maryland, 2016. http://economicsandpeace.org/wp-content/uploads/2016/11/Global-Terrorism-Index-2016.2.pdf

8. International Peace Institute. “A New Approach? Deradicalization Programs and Counterterrorism”, June 2010, https://www.ipinst.org/wp-content/uploads/publications/a_new_approach_epub.pdf

9. The Carter Center. “Inclusive Approaches to Preventing Violent Extremism Guidebook”, 2019, https://www.cartercenter.org/resources/pdfs/peace/conflict_resolution/countering-isis/inclusive-approaches-to-preventing-violent-extremism.pdf

“ZO‘RAVON EKSTREMIZM VA RADIKALIZMNI OLDINI OLISH VA UNGA QARSHI KURASHISH BO‘YICHA ILG‘OR AMALIYOTLAR: O‘ZBEKISTON VA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARI”

Tahliliy nashr

Muharrir Dilshod Ibrohimov

© “Muloqot” jamoat birlashmasi, 2022 (muloqot-ngo.uz)
Ushbu nashrda keltirilgan fikr va mulohazalar bo‘iycha mualliflik huquqi “Muloqot” jamoat birlashmasiga tegishli. Nashrdan o‘rin olgan materiallardan to‘liq yoki qisman foydalanilganda, ulardan iqtibos keltirilganda “Muloqot” tashkilotiga havola ko‘rsatilishi shart.

“Muloqot” jamoat birlashmasi
Manzil: 100020, Toshkent sh., Olmazor tumani, Beruniy ko’chasi, 83 uy.
E-mail: mngouz@gmail.com Veb-sahifa: www.muloqot-ngo.uz
Tel. +998977205197 Faks. +998712495366